

## **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O‘RGATISH YO‘LLARI**

**Yuldasheva Zumradxon Turg‘unpo‘latovna**

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali Pedagogika yo‘nalishi  
Magistranti*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqola Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning til o‘rganishiga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun Ingliz tili o‘qitishning samarali metodlari haqida toxtalib o‘tiladi. Mazkur maqolada bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o‘rgatish usullari bilan tanishishingiz mumkin.*

### **Kalit so‘zlar**

*Aralash texnika, qiziqarli o‘yinlar, ko‘rgazmalar, qiziqarli qo‘shiqlar, zamonaviy metodlar, harakatli o‘yinlar*

### **Аннотация**

*Данная статья посвящена эффективным методам обучения английскому языку для повышения интереса учащихся к изучению языка в начальных классах. В этой статье вы сможете познакомиться с содержательными и интересными методиками обучения детей английскому языку.*

### **Ключевые слова**

*Смешанная техника, интересные игры, выставки, интересные песни, современные методы, подвижные игры.*

### **Annotation**

*This article focuses on effective methods of teaching English to increase students' interest in learning the language in primary grades. In this article, you can get acquainted with meaningful and interesting methods of teaching English to children.*

### **Keywords**

*Mixed media, interesting games, exhibitions, interesting songs, modern methods, action games*

Jaxonda global muammolar va integratsiya jarayonlari keskinlashib borayotgan hozirgi sharoitda eng yangi ta'lim haqida ijtimoiy va individual xabardorlikni oshirishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Dunyoda ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jahon tajribasida yosh kelajak avlodni ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish qobiliyatini oshirish, ularning xorijiy tillarga qiziqishini rivojlantirish bo'yicha olimlar tomonidan qator samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish - umuman maktab qo'shimcha til kursini o'zlashtirishning dastlabki bosqichi sifatida qaraladi. Shu sababli boshlang'ich sinflarga ingliz tilini o'qitishda ko'zda tutiladigan umumiy masalalarni hisobga olish va bu masalalarni hal etishda boshlang'ich ta'limning ahamiyatini to'g'ri baholash kerak. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi,

ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning chet tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari oshdi. Davlatimiz tomonidan xorijiy tillarni o‘rganishga ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Xozirgi kunda xorijiy tillarni bilish ko‘nikmasi hayotimizning ajralmas qismlaridan biri bo‘lib bormoqda. Xususan Mustaqillik davridan boshlab xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan talab yanada kuchaydi. Zamonaviy jamiyatda xorijiy tillarni o‘rganish kasbiy ta‘limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ingliz tilini o‘rganishda o‘quvchining qanchalik o‘zlashtirishi va darajasi yoshidan kelib chiqib bosqichma-bosqich o‘rgatish yaxshi natija beradi. Statistik ma‘lumotlarga qaraganda bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o‘zlashtirishi tajribali pedagoglar tomonidan aniqlangan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, yuqori sinf o‘quvchilariga qaraganda chet tilini o‘rganishiga bo‘lgan moyilliklari va salohiyatlari yuqoriroq bo‘ladi. Shuni e‘tiborga olish kerakki yosh bolalar ma‘lumotlarni ma‘nosini tushunib emas balki uni ko‘rib va taqlid qilib o‘rganadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishni gramatik tushuncha berishdan boshlamaslik kerak. Chunki chet tilining o‘rgatishining dastlabki qadamidanoq bolani zo‘riqtirib qo‘yish va qiziqishini so‘ndirib qo‘yish mumkin. Shuning uchun Boshlang‘ich sinflarda va yosh bolalarga ingliz tilini o‘rgatish ancha mushkul va ma‘suliyatli. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug‘anivich Karimovning 2012- yil 10-dekabrda “Chet tillilarni o‘rganish tizimini yanada takamillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ -1875- sonli qarorida ham Boshlang‘ich sinflarda 1-sinfdan boshlab chet tilini o‘rgatish va ularning qiziqishini oshirishda zamonaviy usullar bilan dars o‘tish bosqichma- bosqich yo‘lga qo‘yildi.

So‘nggi paytlarda ingliz tilini o‘rganadigan har qanday yoshdagi odamlar soni ko‘payib bormoqda. Ingliz tilida o‘qish, inson birinchi navbatda o‘zini, shuningdek, dunyoni tushunishga intiladi. Chunki hozirgi zamonda ingliz tili Xalqaro tilga aylangani barchamizga ma‘lum . Hozirgi paytda ingliz tilini bilmasdan yashash qiyinlashib bormoqda. Ammo til o‘rganish ham yosh davrlarga hamda ota – onaning talablariyu oiladagi muxitga bog‘liq bo‘lmoqda.

Ota-onalarning 41 foizi o‘z farzandlarini kitob o‘qishni yoqtirmasligini xorijiy tillarni o‘rganishda qiyinchiliklarga duch kelishayotganini aytishgan. Agar bolalar o‘qishni yoqtirmasalar, ular o‘z vaqtlarini yaxshilashga kamroq vaqt ajratadilar.

O‘qish va tushunishning yomon ko‘nikmalari umidsizlikka, o‘ziga ishonchning pastligiga va yomon baholarga olib kelishi mumkin. Ammo til o‘rganishdagi o‘qishdagi qiyinchiliklar - bu muntazam mashq bilan yaxshilanishi mumkin bo‘lgan holat.

Yaponiyalik muhandis va tadbirkor Masura Ibukaning “Uchdan keyin kech” kitobida yozganidek “Bolaning miyasi cheksiz miqdordagi ma‘lumotlarga ega bo‘lishi mumkin. Va har bir bolada daho yashirin. Uning kim bo‘lib voyaga yetishi esa kattalarning munosabati, tarbiyasi mahsulidir” Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tilini o‘rgatish ularni qo‘shimcha mashg‘ulotlarga qiziqtirishda ehtiyotkorona, turlicha yondashuvlar zarurligini ko‘rishimiz mumkin .

## **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI MAZMUNLI VA QIZIQARLI O‘RGATISH USULLARI**

- Aralash texnika bu yerda biz ixtiyoriy ravishda turli xil texnikalarni birlashtira olamiz. Masalan, bunda bolalar o‘yin o‘ynashi qo‘shiqlar aytishi, rasm chizishi turli xil harakatlar orqali yangi so‘zlarni ko‘rsatib berishi mumkin. Texnikani afzalligi xilma-xillikda. Bunda o‘quvchi bitta narsa bilan cheklanib qolmaydi.

- Qiziqarli o‘yinlar orqali o‘rganish ingliz tili fanini o‘qitishda turli xil o‘yinlar orqali o‘rgatishning o‘rni beqiyosdir. Dars davomida har xil o‘yinlar o‘ynab turish sinfda fanni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini yanada oshiradi.

- Ko‘rgazmalar bilan ham bolalarga ingliz tilini osonroq o‘rgatish mumkin. Bunda bolalar mavzulariga oid ko‘rgazmalarni ko‘rishadi va so‘zlarni yodlay olishadi.

- Bola o‘qishni tugatgandan so‘ng, u hozirgina o‘qiganlari haqida birga gapiring. u nimani o‘rganganini va uning fikrlarini so‘rang.

- Ularni daftarga eslatma qo‘yishga va fikrni tushunish uchun uni qayta-qayta o‘qishga undang.

- Qo‘shiqlar orqali tushunish yoki eslab qolish qiyin bo‘lgan so‘zlarni musiqaga solib kuylash. Xususan bunda yangi so‘zlarni eslab qolish bilan birga, bolaning og‘zaki nutqi ham rivojlanadi. Ingliz tili alifbosi, fasllar, oylar va shakllarni qo‘shiq qilib o‘rganishlari shunchaki yodlashdan ko‘ra oson va samarali ekanligini ko‘rsatadi.

- Zamonaviy metodlar interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham ataladi. Masalan, Aqliy hujum metodida bolalarga biron bir buyum yoki narsalarni ko‘rsatib “What is this?” “Bolalar esa ingliz tilida javob qaytarishadi “It is a book” yoki “It is a flower”. Bunday aqliy hujum metodlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ingliz tilida narsa va buyumlarni yodlay olishda yordam beradi.

- Harakatli o‘yinlar bilan ham ingliz tilini o‘rgatish. Bunda o‘quvchilar ingliz tilida mevalar, hayvonlarni imo- ishoralar bilan ko‘rsatib uni nomlarini aytish bilan ham o‘rganib olishadi. Xususan harakatli o‘yinlar bilan dars o‘tish bolalarni ingliz tiliga qiziqishini yanada kuchaytiradi.

Ushbu oddiy maslahatlardan so‘ng siz bolalarning ingliz tili o‘rganishdagi ko‘nikmalarini osongina rivojlantirishingiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda Boshlang‘ich sinflarda Ingliz tilini qiziqarli va samarali tarzda olib borilishi keying bilimlari uchun yaxshi bir poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini Ingliz tiliniga o‘rgatish murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, uni samarali tashkil etishning boshlanishi bo‘lib, sinf rahbarlaridan maqsadli, tizimli yondashuvni talab qiladi. Bolalarga ingliz tilini qanchalik muhimligini tushuntirib borilishi darkor. Binobarin, o‘quvchilarni Ingliz tiliniga o‘rgatishda o‘qituvchilar yetakchilik qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarning bilm olish va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishning tashkiliy-metodik talablarini yetarli darajada bilishlari kerak.

---

### **FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR:**

1. CHET TILLARNI o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari tog‘risida (PQ-1875-son) Xalq so‘zi gazetasi. 2012-yil 10- dekabr
2. SCIENCE AND INNOVATION. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL . Boboqulova Madina 2022 ISSN:2181-3337
3. Turdaliyeva G.N “Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar “//2020
4. <<SCIENTIFIC PROGRESS>> Scientific Journal ISSN:2181-1601 Nodira Qurbonaliyeva
5. Ashirbaeva A(2020). POSITIVE TRAITS OF TEACHING LANGUAGE THOUGHT LITERATURE. Science and Education, 1 (special Issue 2.)